

OLIIY TA'LIMNI XALQAROLASHTIRISH SHAROITIDA BO'LAJAK PEDAGOGLARNI KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

Egamberdiyev Oyatillox Alisher o'g'li -

Farg'ona davlat universiteti tayanch doktorati

E-mail: eoyatillox@gmail.com

ORCID: <https://orcid.org/0009-0006-9557-9386>

Tel: +998 90 381 92 50

Annotatsiya. Mazkur maqolada oliy ta'lim tizimini xalqarolashtirish jarayonida bo'lajak pedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil etiladi. Xalqaro ta'lim makoniga integratsiyalashuv sharoitida pedagog kadrlar tayyorlash sifatiga qo'yilayotgan zamonaviy talablar, kompetensiyaviy yondashuvning mazmun-mohiyati hamda bo'lajak pedagoglarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishda ta'lim jarayonini modernizatsiyalash masalalari yoritiladi. Kasbiy kompetentlikning tarkibiy komponentlari, ularni rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik shart-sharoitlar, jumladan, innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish, xalqaro ta'lim standartlari va tajribalarini o'quv jarayoniga joriy etish, talabalarning mustaqil va ijodiy faoliyatini qo'llab-quvvatlash, shuningdek, pedagogik refleksiya va kasbiy motivatsiyani shakllantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: oliy ta'limni xalqarolashtirish, bo'lajak pedagoglar, kasbiy kompetentlik, pedagogik shart-sharoitlar, kompetensiyaviy yondashuv, xalqaro ta'lim standartlari, innovatsion ta'lim texnologiyalari.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ В УСЛОВИЯХ ИНТЕРНАЦИОНАЛИЗАЦИИ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация. В данной статье с научно-теоретической и практической точек зрения анализируются педагогические условия развития профессиональной компетентности будущих педагогов в процессе интернационализации системы высшего образования. Раскрываются современные требования, предъявляемые к качеству подготовки педагогических кадров в условиях интеграции в международное образовательное пространство, сущность компетентностного подхода, а также вопросы модернизации образовательного процесса, направленные на совершенствование профессиональной подготовки будущих педагогов. Особое внимание уделяется структурным компонентам профессиональной компетентности и педагогическим условиям, способствующим их развитию, в том числе использованию инновационных образовательных технологий, внедрению международных образовательных стандартов и передового опыта в учебный процесс, поддержке самостоятельной и творческой деятельности студентов, а также формированию педагогической рефлексии и профессиональной мотивации.

Ключевые слова: интернационализация высшего образования, будущие педагоги, профессиональная компетентность, педагогические условия, компетентностный подход, международные образовательные стандарты, инновационные образовательные технологии.

PEDAGOGICAL CONDITIONS FOR DEVELOPING THE PROFESSIONAL COMPETENCE OF FUTURE TEACHERS IN THE CONTEXT OF THE INTERNATIONALIZATION OF HIGHER EDUCATION

Abstract. *This article provides a scientific-theoretical and practical analysis of the pedagogical conditions for developing the professional competence of future teachers in the context of the internationalization of higher education. The study highlights modern requirements for the quality of teacher training under the conditions of integration into the global educational space, reveals the essence of the competency-based approach, and addresses issues related to the modernization of the educational process aimed at improving the professional training of future educators. Particular attention is paid to the structural components of professional competence and the pedagogical conditions that facilitate their development, including the use of innovative educational technologies, the integration of international educational standards and best practices into the learning process, support for students' independent and creative activities, as well as the formation of pedagogical reflection and professional motivation.*

Keywords: *internationalization of higher education, future teachers, professional competence, pedagogical conditions, competency-based approach, international educational standards, innovative educational technologies.*

KIRISH

Zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda oliy ta'lim tizimi oldiga qo'yilayotgan talablar tobora murakkablashib bormoqda. Jamiyatning intellektual salohiyatini yuksaltirish, ta'lim sifati va samaradorligini oshirish, shuningdek, pedagog kadrlar tayyorlash tizimini xalqaro ta'lim makonidagi yetakchi yondashuvlar asosida takomillashtirish oliy ta'lim muassasalari faoliyatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu jihatdan, oliy ta'limni xalqarolashtirish jarayoni bo'lajak pedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim siyosatini amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi kunda pedagogdan nafaqat o'z fanini mukammal bilish, balki ta'lim jarayonini loyihalash, innovatsion ta'lim texnologiyalarini qo'llash, axborot-resurslaridan samarali foydalanish, shaxsga yo'naltirilgan va kompetensiyaviy yondashuv asosida o'quv

faoliyatini tashkil etish kabi murakkab kasbiy vazifalarni bajarish talab etilmoqda. Mazkur talablar bo'lajak pedagoglarning kasbiy kompetentligini faqat nazariy bilimlar bilan cheklab qo'ymasdan, balki amaliy ko'nikmalar, kasbiy qadriyatlar, refleksiv faoliyat va doimiy kasbiy rivojlanishga tayyorlikni o'z ichiga olgan yaxlit tizim sifatida shakllantirishni taqozo etadi.

Oliy ta'limni xalqarolashtirish sharoitida ta'lim mazmunini xalqaro standartlar asosida yangilash, ilg'or xorijiy pedagogik tajribalarni o'rganish va o'quv jarayoniga moslashtirish, akademik hamkorlik va mobillik imkoniyatlaridan samarali foydalanish bo'lajak pedagoglarning kasbiy tayyorgarligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Biroq ushbu jarayonlarning samaradorligi, avvalo, ta'lim muhitini maqsadga muvofiq tashkil etish, o'qitish metodlari va shakllarini modernizatsiyalash, talabalarning mustaqil va ijodiy faoliyatini qo'llab-quvvatlash hamda kasbiy motivatsiyani rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik shart-sharoitlarning ilmiy asoslangan holda belgilanishiga bog'liqdir. Shu sababli bo'lajak pedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda pedagogik shart-sharoitlarning mazmuni, tuzilmasi va ularning ta'lim jarayonidagi o'rne hamda ahamiyatini aniqlash, oliy ta'limni xalqarolashtirish talablariga mos holda ularni takomillashtirish masalalari alohida ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Bo'lajak pedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish masalasi pedagogika fanida yetakchi ilmiy yo'nalishlardan biri bo'lib, ushbu muammo respublika va xorijiy olimlar tomonidan turli nazariy yondashuvlar asosida tadqiq etilgan. Ilmiy adabiyotlarda kasbiy kompetentlik pedagog shaxsining bilim, ko'nikma va malakalari bilan bir qatorda, kasbiy qadriyatlar, motivatsiya, refleksiya hamda pedagogik faoliyatni samarali tashkil eta olish qobiliyatini o'zida mujassam etgan integrativ tushuncha sifatida talqin qilinadi.

Respublika olimlaridan N.X.Xodjaye, B.R.Xodjaye, A.A.Abduqodirov, Sh.Sh.Sharipov, R.M.Askarova, U.Sh.Begimkulovlarning ilmiy ishlarida pedagog kadrlar tayyorlash jarayonida kompetensiyaviy yondashuvning nazariy asoslari, ta'lim natijalarini baholash mezonlari hamda pedagogik faoliyatni modernizatsiyalash masalalari yoritilgan. Pedagogik kompetentlikning tarkibiy

tuzilmasini aniqlash masalalari N.A.Muslimov, M.Q.Quronov, D.J.Raxmonova pedagog kasbiy kompetentligini kasbiy bilimlar, amaliy faoliyat tajribasi, kommunikativ madaniyat va shaxsiy sifatlar uyg'unligi sifatida talqin qiladilar. Ularning ilmiy qarashlarida bo'lajak pedagoglarni tayyorlash jarayonida kasbiy motivatsiya va refleksiv faoliyatni rivojlantirish muhim pedagogik shart-sharoitlardan biri sifatida e'tirof etiladi. Oliy ta'lim tizimini rivojlantirish va uni xalqaro ta'lim makoniga moslashtirish masalalari R.H.Djuraev, K.Q.Olimov, Sh.E.Kurbanovlarning ilmiy izlanishlarida chuqur tahlil qilingan. Ushbu tadqiqotlarda ta'lim dasturlarini xalqaro standartlar asosida yangilash, akademik hamkorlikni rivojlantirish hamda ilg'or xorijiy tajribalarni milliy ta'lim tizimiga moslashtirish orqali pedagog kadrlar tayyorlash sifatini oshirish imkoniyatlari ko'rsatib berilgan.

Xorijiy olimlardan J.Raven kasbiy kompetentlikni shaxsning muayyan faoliyat sohasida samarali harakat qilishini ta'minlovchi integrativ qobiliyat sifatida izohlaydi. L.M.Spencer va S.M.Spencer kompetentlikning xulq-atvoriy va motivatsion jihatlarini asoslab, uni kasbiy muvaffaqiyatning muhim omili sifatida ko'rsatadilar. E.Boyatzis kompetentlikni shaxsning ichki imkoniyatlari va tashqi talablar o'rtasidagi muvofiqlik orqali tavsiflab, ta'lim jarayonida refleksiv faoliyatni rivojlantirish zarurligini ta'kidlaydi.

Innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish orqali bo'lajak pedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish masalalari B.Joyce, M.Weil, D.Kolblarning ilmiy ishlarida o'z ifodasini topgan. Xususan, tajribaviy o'qitish modeli va refleksiv yondashuv pedagogik tayyorgarlikning samaradorligini oshirish omili sifatida e'tirof etiladi. Respublika va xorijiy olimlar tomonidan bo'lajak pedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish masalasi turli jihatlarida yoritilgan bo'lsa-da, oliy ta'limni xalqarolashtirish sharoitida ushbu jarayonga xizmat qiluvchi pedagogik shart-sharoitlarni tizimli, kompleks va amaliy jihatdan asoslash zarurati hanuz muhimligicha qolmoqda. Ushbu holat tanlangan mavzuning ilmiy va amaliy ahamiyatini belgilaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Oliy ta'limni xalqarolashtirish sharoitida bo'lajak pedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlarini ilmiy asoslash va amaliy jihatdan takomillashtirishga mazkur tadqiqot yo'naltirilgan bo'lib, unda tizimli, kompetensiyaviy va shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlar metodologik asos sifatida qabul qilindi. Ushbu yondashuvlar bo'lajak pedagoglarni tayyorlash jarayonini yaxlit pedagogik tizim sifatida ko'rib chiqish, ta'lim mazmuni, shakl va metodlarining o'zaro bog'liqligini ta'minlash hamda kasbiy rivojlanishga yo'naltirilgan ta'lim muhitini yaratish imkonini beradi.

Kasbiy kompetentlikni pedagogik hodisa sifatida tahlil qilishda nazariy va empirik tadqiqot metodlaridan kompleks foydalaniladi. Nazariy metodlar doirasida pedagogika, psixologiya va ta'lim menejmenti sohalariga oid ilmiy adabiyotlar, normativ-huquqiy hujjatlar, ta'lim standartlari hamda xorijiy va respublika tajribalarini tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish va tizimlashtirish usullari qo'llanildi. Bu metodlar orqali kasbiy kompetentlik tushunchasining mazmuni, tarkibiy komponentlari hamda uni rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik shart-sharoitlar aniqlashtirildi.

Empirik tadqiqot metodlari sifatida pedagogik kuzatuv, suhbat, so'rovnoma, test sinovlari va diagnostik metodikalardan foydalanildi. Ushbu metodlar bo'lajak pedagoglarning kasbiy kompetentligining mavjud darajasini aniqlash, ularning kasbiy motivatsiyasi, refleksiv faoliyati hamda innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalarini baholash imkonini berdi. Olingan ma'lumotlar asosida kasbiy kompetentlik darajalarini aniqlash mezonlari va ko'rsatkichlari ishlab chiqildi. Ishning amaliy bosqichida pedagogik tajriba-sinov ishlari tashkil etilib, unda bo'lajak pedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik shart-sharoitlar majmuasi amaliyotga joriy etildi. Tajriba-sinov ishlari davomida innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish, xalqaro ta'lim standartlari va ilg'or pedagogik tajribalarni o'quv jarayoniga integratsiya qilish, talabalarning mustaqil va ijodiy faoliyatini faollashtirishga qaratilgan metodlar sinovdan o'tkazildi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Olib borilgan pedagogik tajriba-sinov ishlari bo'lajak pedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik shart-sharoitlarning samaradorligini aniqlash imkonini berdi. Tajriba-sinov ishlari boshlanishidan oldin va yakuniy bosqichda o'tkazilgan diagnostik tadqiqotlar natijalari bo'lajak pedagoglarning kasbiy kompetentligida sezilarli o'zgarishlar yuz berganini ko'rsatdi. Xususan, kasbiy bilimlar darajasi, amaliy faoliyatga tayyorgarlik, kommunikativ ko'nikmalar hamda refleksiv faoliyat ko'rsatkichlarida ijobiy dinamika kuzatildi.

Boshlang'ich diagnostika natijalariga ko'ra, tajriba va nazorat guruhlarida bo'lajak pedagoglarning kasbiy kompetentligining o'rta va past darajalari ustunlik qilgani aniqlandi. Tajriba-sinov jarayonida ishlab chiqilgan pedagogik shart-sharoitlar majmuasi – innovatsion ta'lim texnologiyalaridan tizimli foydalanish, xalqaro ta'lim standartlariga mos o'quv topshiriqlarini joriy etish, talabalarning mustaqil va ijodiy faoliyatini faollashtirish hamda kasbiy refleksiyani rivojlantirishga yo'naltirilgan metodlar qo'llanilgandan so'ng, tajriba guruhida yuqori va yetarli darajadagi kasbiy kompetentlik ko'rsatkichlari sezilarli darajada oshdi. Yakuniy tahlil natijalari tajriba guruhida kasbiy kompetentligining yuqori darajasiga ega bo'lgan talabalarning ulushi nazorat guruhiga nisbatan ancha yuqori ekanini ko'rsatdi. Ayniqsa, kasbiy vaziyatlarni tahlil qilish, pedagogik qarorlar qabul qilish, o'quv jarayonini loyihalash va innovatsion metodlardan foydalanish bo'yicha ko'nikmalarda barqaror o'sish qayd etildi. Bu holat taklif etilgan pedagogik shart-sharoitlarning bo'lajak pedagoglarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishda samarali ekanligini tasdiqlaydi. Natijalar ilmiy adabiyotlarda ilgari surilgan nazariy qarashlar bilan qiyosiy tahlil qilindi. Jumladan, kasbiy kompetentlikni integrativ sifat sifatida talqin qiluvchi respublika va xorijiy olimlarning fikrlari tajriba-sinov natijalari bilan uyg'unlashdi. Tadqiqot jarayonida kasbiy kompetentlikning bilim, faoliyat va shaxsiy-motivatsion komponentlari o'zaro uzviy bog'liq holda rivojlanganligi aniqlandi. Bu holat kompetensiyaviy yondashuvning amaliy samaradorligini yana bir bor tasdiqlaydi. Shuningdek, innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish bo'lajak pedagoglarning o'quv jarayoniga bo'lgan qiziqishini oshiradi, mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuvni rivojlantiradi.

Talabalarda kasbiy refleksiyaning shakllanishi ularning o'z faoliyatini tahlil qilish, kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etishga intilishida muhim omil bo'lib xizmat qildi. Bu esa pedagogik faoliyatda doimiy o'zini rivojlantirishga tayyorlikni shakllantirishga yordam berdi.

Oliy ta'limni xalqarolashtirish sharoitida bo'lajak pedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish samaradorligi pedagogik shart-sharoitlarning ilmiy asoslangan holda tanlanishi va ta'lim jarayoniga tizimli ravishda joriy etilishiga bevosita bog'liqdir. Tadqiqot davomida aniqlangan ijobiy o'zgarishlar taklif etilgan pedagogik yondashuv va shart-sharoitlar majmuasining amaliy ahamiyatini tasdiqlaydi hamda ularni oliy ta'lim amaliyotida keng joriy etish imkoniyatlarini ochib beradi.

XULOSA

O'tkazilgan tadqiqot oliy ta'limni xalqarolashtirish sharoitida bo'lajak pedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish muhim masala ekanligini tasdiqladi. Tadqiqot davomida kasbiy kompetentlik pedagogning bilimlari, amaliy ko'nikmalari, shaxsiy-motivatsion sifatlari, kommunikativ madaniyati va refleksiv faoliyatini o'zida mujassam etgan integrativ tizim sifatida aniqlandi.

Bo'lajak pedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish samaradorligi pedagogik shart-sharoitlarning mazmuni va sifatiga bog'liq. Ushbu shart-sharoitlarga innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish, xalqaro ta'lim standartlarini joriy etish, talabalarning mustaqil va ijodiy faoliyatini faollashtirish hamda kasbiy refleksiya va motivatsiyani shakllantirish kiradi. Tajriba-sinov natijalari ushbu shart-sharoitlarning samaradorligini tasdiqladi, xususan, kasbiy vaziyatlarni tahlil qilish, pedagogik qarorlar qabul qilish va innovatsion yondashuv asosida o'quv jarayonini tashkil etish ko'nikmalarida ijobiy o'sish kuzatildi. Shu bilan birga, tadqiqot natijalari oliy ta'lim muassasalarida pedagog kadrlar tayyorlash jarayonini takomillashtirish, bo'lajak pedagoglarning kasbiy tayyorgarligini xalqaro talablar darajasida rivojlantirish va ta'lim sifatini oshirish uchun ilmiy-amaliy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. S.X.Abdullayev. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2015. – 120 b.
2. A.A.Abduqodirov Pedagogik kompetentlik nazariyasi va amaliyoti. Toshkent: Fan, 2018. – 145 b.
3. R.M.Askarova Bo'lajak pedagoglarning kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish metodikasi. – "O'zbekiston pedagogika jurnali", 2019, №2(15), 45–53 b.
4. U.Sh.Begimkulov Oliy ta'limni modernizatsiyalash va kadrlar tayyorlash sifatini oshirish. – Toshkent: Akademiya, 2020. – 98 b.
5. A.Hargreaves Teaching in the Knowledge Society. – New York: Teachers College Press, 2003. – 212 p.
6. B.Joyce, M.Weil. Models of Teaching. – Boston: Allyn Bacon, 2003. – 250 p.
7. D.Kolb. Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development. – Englewood Cliffs: Prentice Hall, 1984. – 256 p.
8. Sh.E.Kurbanov. Oliy ta'limni xalqaro standartlar asosida rivojlantirish. – "Pedagogika va psixologiya jurnali", 2021, №1(10), 12–20 b.
9. N.A.Muslimov, M.Q.Quronov Pedagogik kompetentlikni shakllantirishning innovatsion metodlari. – Toshkent: Fan va Ta'lim, 2017. – 134 b.
10. P.Perrenoud Des compétences pour enseigner. – Paris: ESF, 1999. – 180 p.
11. J.Raven. The Concept of Competence in Education. – Oxford: Oxford University Press, 2000. – 200 p.
12. Sh.Sh.Sharipov, N.X.Xodjayev Bo'lajak pedagoglarning kompetensiyaviy tayyorgarligi. – Toshkent: Oliy ta'lim nashriyoti, 2016. – 112 b.
13. L.M.Spencer, S.M.Spencer Competence at Work: Models for Superior Performance. – New York: John Wiley Sons, 1993. – 256 p.
14. R.E. Boyatzis. The Competent Manager: A Model for Effective Performance. – New York: John Wiley & Sons, 1982. – 210 p.